

# **“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”**

**mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari**

## **ALISHER NAVOIY TOSHbosma DEVONLARIDA DEBOCHA VA KOLOFON MATNLARI**

**Dilnoza Rustamova**

*O’zR FA Davlat adabiyot muzeyi tayanch doktoranti.*

*E-mail: [dilnozashahriyor@gmail.com](mailto:dilnozashahriyor@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Maqolada Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi debocha va xotimalar haqida batafsil ma’lumot berilgan. Devonlardagi o’zga xosliklarga to’xtalingan.

**Kalit so‘zlar:** toshbosma, debocha, kolofon, sa’j, kitobat san’ati.

**Аннотация:** В статье представлена подробная информация о предисловиях и окончаниях в литографских кабинетах Алишера Навои. Обсуждаются особенности девона.

**Ключевые слова:** литография, предисловие, колофоны, простирание, книжное искусство.

**Abstract:** The article provides detailed information about the prefaces and endings in Alisher Navoi’s lithographic offices. The special characteristics of the Devonian are discussed.

**Key words:** lithography, preface, colophon, prostration, book art.

Navoiy lirik merosini tashkil etuvchi “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotining toshbosma devonlar ichida nisbatan mukammali hijriy 1299-yil, milodiy 1881-1882-yillari Xivada nashr etilgan “Chahor devon”dir. Kulliyot xon topshirig‘i bilan xattot Ibrohim Sulton Eroniy tomonidan Komil Xorazmiy noshirligida Muhammad Rahimxon II matbaasida chop etilgan. “Chahor devon” toshbosma kitoblarning takrorlanmas nusxasi hisoblanadi.[1] Zero, “Xazoyin-ul-maoniy”ning bir kitobga jamlangan bunday to‘liq holdagi ikkinchi bir nashrini uchratmadik. Ammo Sharqshunoslik instituti asosiy fondida aynan shu devonlarning (“Favoyid-ul-kibar”dan tashqari) alohida kitob holidagi 1881-1882-yilgi nashrlari ham mavjud.[2] Har ikki nusxaning “G‘aroyib-us-sig‘ar” devoni maxsus debocha bilan yakunlangan. “Navodir-ush-shabob” va “Badoye-ul-vasat”da esa birinchi devondagi debochaning ba’zi o‘rinlari tushirib qoldirilgan holda, ammo matniy o‘zgarishsiz takrorlangan.

O‘zbek adabiyotida debochalarning yetuk namunasi Alisher Navoiy asarlariga yozilgan bo‘lsa, keyingi davr ijodkorlarida ta’sirlanish va unga ergashish holatlari kuzatiladi...

Matnshunos M.Hakimov debochaga shunday ta’rif beradi: “Kulliyot, devon, bayoz, majmua va shu kabi kitob (asar)larga muallifning o‘zi yoki kotib tomonidan yozilgan muqaddima.[5.89] “Chahor devon”da esa muallif debochasidan tashqari kotibning emas, balki uchinchi bir shaxsning – shoir va xattot Komil Xorazmiyning debochasi ham mavjud. Ma’lumki, “G‘aroyib-us-sig‘ar” uchun Navoiyning o‘zi debocha yozgan. Shu sabab Komil Xorazmiyga tegishli muqaddima asar oxirida kelgan. Ikkinchi devonning ham yakunidan o‘rin olishida esa, bizningcha, shoir ijodiga ehtirom

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

bilan undan keyin kelganligi ehtimoldan xoli emas. E’tiborli jihatni, matnda o‘g‘uz lahjasining ayrim elementlari ham uchraydi.

Har ikkala devonda ham debocha Allohga hamd, payg‘ambarga na’t, kitobning chop etilishida da’vat va xayriyat ko‘rsatgan Muhammad Rahmixon II ga madh uzvida davom etadi. Fasohat va balog‘at bilan kitob tahririni amalga oshirgan Muhammadrasul mirzaboshining nomi ham alqab tilga olingan.

Xiva xoni Abulg‘ozzi Sayyid Muhammad Bahodirxonga yusufliqo, adolat peshvosi, mutolaani sevuvchi deya ta’rif beriladi. Qayerdaki bayt ko‘rsa, uning sharhini keltirishini, parokanda ash’orlarni jam’ qilib, Xurshid matbaasida nashr qildirganini uning alohida fazilati sifatida ko‘rsatiladi.

Debocha nasrda yozilgan va bir qancha o‘rinlarda sa’j san’atidan ham foydalanilgan: سرهدى جمالىينىڭ پىردهسى احدى تەمثىلىنىڭ كىردىسى (*Sarmadi jamolining pardasi, ahdi timsolining kardasi*). Matn sof nasriy usulda bitilmagan. Xon ta’riflarini keltirish, unga ezgu istaklarni izhor qilish esa to‘rtliklarda aks etgan:

تا خسرو خاورغا طلوع اولغوسىدور  
انوار يلا ير يوزىنى تولدورغوسىدور.  
بول شاه جهان اھليغا فيروزى يلا  
تا ير بىلا كوك بىناسىينىڭ  
بولغوسىدور.

*To Xisravi xovarg‘a tulu’ o ‘lg‘usidur,  
Anvor ila yer yuzini to ‘ldurg ‘usidur,  
Bul shohi jahon ahlig‘a Feruzi ila,  
To yer bila ko‘k binosining  
bo ‘lg‘usidur.*

تا دهردورور تخت وزه جاهىنك بولгاي  
بارچه يشىنка خدا پاناهىنك بولгاي  
خصمىنگىغە همىشە چەرە غەدىن سارىغ  
بارام يولىنگىرە خاكراهىنگ بولغاي.  
  
حدىن تىلارام شاه جهان عمرى دراز  
بۇلسون ينا كامى بىلا قىلسون تك تاز.  
محمود بولوب طالع فيروزى ولىك  
خصمىيغە مدام هچ چون موى ايادىز.

*To dahrdurur taxt uza johing bo ‘lg‘ay,  
Barcha ishingga Xudo panohing  
bo ‘lg‘ay,  
Xasmaingga hamisha chehra g‘amdin  
sorig‘,  
Bodom yo ‘lingda xoki rahlig‘  
bo ‘lg‘ay.  
Haqdin tilaram shohi jahon umri  
daroz,  
Bo ‘lsun yana komi bila qilsun teku toz,  
Mahmud bo ‘lub tole’ feruzi valek,  
Xasmig‘a mudom hech chun mo ‘yi  
Ayoz.*

She’rda talmeh san’atidan foydalanib, mag‘rib shohi Xusrav va Mahmud G‘aznaviy kabi tarixiy shaxslar tilga olinadi. G‘aznaviyning sadoqatli mulozimi Ayoz orqali xonning atrofidagi yaqinlariga ham yuksak baho beriladi. Mahmud va Ayoz

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

obrazlari mumtoz adabiyotda Jaloliddin Rumiy “Masnaviyi ma’naviy”sining oltinchi daftaridagi hikoyatlarning asosiy qahramonlaridan biri sifatida va XV-XVI asr Hirot adabiy muhiti vakili Faxruddin Ali Safiy Koshifiyning “Manzumayi Mahmud va Ayoz” (Mahmud va Ayoz haqida she’riy dostoni) da ham kelgan.

Navoiyning toshbosma devonlariga maxsus debocha bilan birga kotiblar tomonidan nasriy va she’riy xotimalar ham yozilgan. Ularning asosiy qismini kitob yakunlangan sanasi, kotibi va homiy haqida ma’lumot beruvchi qisqa hajmli nasriy kolofonlar tashkil qilsa, 237, 248, 306, 872-raqamli toshbosma devonlarda kengroq matnlar o‘rin olgan.

An’anaviy kitobat ishining xos jihatlaridan biri kolofon matnining uchburchak shakliga joylashtirilishidir. Ko‘p hollarda esa nazmdagi matn ikki ustunga tizilib, o‘rtaga ikki chiziqli jadval tortilar edi. Bunday xotima Shohmurod kotib tomonidan 1893-yilda ko‘chirilgan 306-raqamli toshbosmada ham uchraydi. Uning bu xususiyati qo‘lyozma asarlarni eslatadi.

Kolofon matnining she’riy tarzda berilishi ham xattotlar tomonidan an’ana hisoblangan. Xususan, Navoiyning “Lison ut-tayr” asarini ko‘chirgan Muhammad Yusuf Rojiy ham kitob xotimasiga o‘zining o‘ttiz baytli she’rini ilova qilgan. [3.128-129]

طبع دین تابتی حلا زیبا

عاقبات بولری بخت راهمنون

رقم امیدی موندین اجر و ثواب

حاجی میر عارف ایین حاجی محمد بای

بارچا سین بى تعلل اول بردى

جمع ایدی اندا رافت و شفقت

خیرو ایحسانغا دائمًا قایم

اوچوغان ایل دعاده قیلسون ياد

سورسا هر کیمسا اوچوز اون بیردینگ.

شکرللہ بو شاہر رعناء

سعی لار کورگوز و ب نیچا تونو کون

تا تمام ولدى و شبو خوب کتاب

لیک مونگا معین اول خوش می

هر خراجات کیم بولوب ایردی

چونکی ایردی جوان باهیمم

خلق نفعینی کوڈلاگان دائم

کاتبیدور کمینا شاهموراد

سال طبعیغا نواپینی مینگ

Yuqorida tavsiflari keltirilgan 1319/1901-yilda chop etilgan 237 va 248-raqamli toshbosma devonlarda ham ayni shu she’riy matn noshir va kotiblari ismi o‘zgargan holatda keladi. Ularning nisbatan avvalgisi 1893-yilgi nusxa bo‘lgani sabab matnni Shohmurod kotib tuzgan deyish mumkin. Qolaversa, A.Murodovning keltirishicha, xattotning badiiy ijoddan ham birmuncha xabari bo‘lgan: “... ko‘chirish bilan o‘sha davrda kun kechirib bo‘lmash edi. U to‘quvchilarga tig‘, tarak yasab berar edi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, ko‘chirgan qo‘lyozmalariga “Tig‘band”, “Shohimurod tig‘nabdiy” deb imzo qo‘yar edi. Ba’zan shu taxallus bilan she’r ham yozar edi.” [4.148] Umuman,

# **“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALAR”**

**mavzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari**

uning xizmati singgan har bir nashrda alohidalik mavjud. Xususan, kotib 1306/1888-yilda Laxtin matbaasi uchun ko‘chirgan Toshkentdagi dastlabki 872-raqamli toshbosma nusxa ham nasriy xotima bilan yakunlagan. Kolofon qismining boshqa devonlardagi sodda matnlardan farqi o‘z davrining xattotlik faoliyatiga tanqidiy yondashuv mavjudligidir. Bu odatdagi ikki yoki uch jumladan iborat xotimalardan jiddiy farqlanishini anglatadi.

آخон даниш قрину дустан зқаوت آйнларига мعلوم и мфюом олгайликим диван Амир Навиي Ким Тркى اصطلاحида Мرتбдор. Шул жеңдін Тркى اهлиغا مرғуб و اینىڭ قراعتىغا اطفاللار تالىبلىغى حдин افзандорاما кثر اوقات قاعدا شурдия خاريج و معنيدىن بىخبر كىشىلار بول نسخى كتاباتىغا شغل كورگوزگان سىبдин نىخларنىڭ اكتриدا غلط و سهو و خطى واقع بولوب ختى اوقوب بولمايدورغان درجه سىغا يېشىوب ايدى و اگر احيانا بيراز نسخа درستراق موجود بولسا قىمت بىها يلا متعسر بولور ايدى. اما الحمدلله اوшибو زمان سعادت نشان داوان مىھنت اقتранدا اول عىده تجار حاجى حرمىن او زايىمكى و مدineh معظين اعنى عبدالملک باى فقيردین استىدعا قىلدىكيم дивانلار جواب Амир Навиинى نسخهسىن حدالامگен تصحىحلاپ چاب قىلدورولسا مصحح نسخه كىرт تاپىپ ارزان بىها يلا بىع و ثرا بولسا عامتا طالبلارىغە منفعت بولوب و خير النس مىن يتقۇغ الناس مضمونى ايلا بىزگا هەتم نظيرە يتسا كىراك دىب بىس اول كرامى القىنىنىڭ حسب ال امريغا موافق بولىشنى اهتمامىغە سعى و كىش كورگوزدوم.

Shohmurod kotib ta’kidlaganidek, Alisher Navoiyning XIX asrda ko‘chirilgan asarida ko‘plab xatolarga yo‘l qo‘yilgan. Oqibatda, bu davr manbalarining sahihligiga putur yetgan. Kitobning yaratilishidan maqsad ham toliblarga uning matni to‘g‘ri va bahosi arzon holida yetkazish bo‘lgan.

## **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Alisher Navoiy. “Chahor devon”. №10293. O‘zR FAShI asosiy fondi.
2. Alisher Navoiy. “G‘aroyib-us-sig‘ar”. №18. O‘zR FAShI asosiy fondi.
3. O‘zR FA ShI qo‘lyozmalar fondi, inv 7346. – B.128 a-129 a.
4. Murodov A. O‘rta Osiyo xattotlik san’ati tarixidan. -T.:Fan, 1971. -148 b.
5. Hakimov M. Sharq manbashunosligi lug‘ati. – T.: Davr Press. NMU .2013. 89 b.